

INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANIB DARS MASHG'ULOTINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Saidov Asqar Hayitnazarovich

Buxoro davlat texnika universiteti akademik litseyi

Matematika fani o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada dars mashg'ulotlarida foydalanish mumkin bo'lgan interfaol usullar va ularning ahamiyati haqida qisqacha bayon qilingan.*

Kalit so'zlar. *Suhbat usuli, munozara usuli, aqliy hujum, pinbard*

Annotatsion. *This article briefly outlines interactive methods that can be used in lessons and discusses their importance.*

Keywords. Interview method, discussion method, brainstorming, Pinboard method

Mashg'ulotlarda suhbat usulidan foydalanish. Suhbat ta'limning dialogik savol - javob usuli. Bu usulning yetakchi funksiyasi - motivatsiya qilish: aniq maqsadni ko'zda tutadigan va mohirona qo'yilgan savollar yordamida o'quvchilarni o'z bilimlarini berilgan mavzu bo'yicha esga olish, bayon etishga, muhokama etishga o'rgatadi.

Suhbat davomida o'quvchilar yangi bilimlarni mustaqil fikrlash, xulosa chiqarish, yakunlash va umumlashtirish yo'li bilan egallab oladilar, tushunadilar. Fikr yuritishni maksimal faollashtiradi, bilim olishga intilishni yanada rivojlantirish imkonini beradi.

Belgilangan maqsad bo'yicha suhbatlar:

a) Kirish yoki tashkil qiluvchi (didaktik vazifasi – o'quvchilarni mashg'ulotga tayyorlash)

b) Yangi bilimlardan xabardor qilish (didaktik vazifasi - o'quvchilar yangi material bilan tanishtiriladi).

v) sintezlovchi yoki mustahkamlovchi (didaktik vazifasi o'quvchilar tomonidan bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash, eslab qolish va (anglash) Suhbatlar o'quv va davra suhbatlariga bo'linadi. Davra suhbatlarida ishtirokchilarning joilashish tartibi va asosiysi ularning o'z fikrini navbat bilan bildirishidir. Suhbat erkin vaziyatda olib borilib, savollar aniq, lo'nda berilishi juda muhimdir.

Ular o'zaro mantiqiy bogliq bo'lishi, o'rganayotgan materialning tub ma'nosini ochib berishi, bilimni tartibli ravishda egallab olishga imkoniyat yaratilishidadir

Savollar ma'nosi va shakli jihatdan o'quvchilarni rivojlanish darajasiga mos bo'lishi kerak. Oson savollarda faol bo'lishi. bilishga jiddiy yondashuv, intilishni kuchaytiradi.

a)Har bir savolni barchaga berasiz. O'ylash uchun bir oz vaqt o'tgandan keyingina o'kuvchilarni javob berishga taklif qilasiz.

b)Savolga joyidan turib «baqirib» javob bergan o'quvchini rag'batlantirmang.

v) «Bo'sh» o'quvchilardan ko'proq so'rash, boshqalardagi aniq javoblarni to'g'rilash yoki to'ldirish imkonini berish.

g)Juda uzun yoki «qo'shaloq» savollar qo'ymang

d)Savolga javob ola olmasangiz, savolni qayta tuzish, yoki bo'laklarga ajratib yo'naltiruvchi savollar bering.

e)Javoblarni isbotlashga, taqqoslashga. o'z dalili va misollari bilan asoslashga imkon bering.

i) Suhbat usulini qo'llayotganingizda o'z imkoniyatingizni va o'quvchilaringizning tayyorgarlik darajasini taroziga solib ko'ring.

SUHBAT USULINING TEXNOLOGIK XARITASI

Faoliyat bosqichlari	O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati
I. Tayyorlov bosqichi	Suhbat mavzularini, maqsadni, vazifasini va natijasini aniqlaydi, kurgazmali vostlarni tanlaydi asosiy va yordamchi savollarni aniqlaydi: uni tashkil qilish va olib borishni puxta o'ylab chiqadi: Savol berish tartibi, asosiy holatlarni umumlashtirish xulosa qilish kerakligini aniqlaydi.	
P.Suhbatga kirish bosqichi	Qisqacha ma'lumot tarzida o'quv suhbatining mavzusini, vazifasini e'lon qiladi.	
III. Suhbat bosqichi	Suhbat davomida o'quvchilarning alohida mulohazalarini umumlaigiradi, qo'yilgan vazifalarga mos ravishda ularni to'ldiradi. Barcha o'quvchilarning suhbatda faol katnashishlarga harakat qiladi. To'g'ri javoblarni ma'qullaydi, noto'g'ri va to'liq bo'lmaganlarini sharxlaydi, Noto'g'ri javob bergan o'quvchiga o'z xatosini o'zi topishni taklif etadi. Boshqalarni yordamga, chaqiradi.	Savollarni diqqat bilan tinglaydi. Javoblarni o'ylaydilar. O'rtoqlari ning javoblari tahlil qiladilar. O'z mulohazalari ni aytadilar.

IV. Xulosa bosqichi	Usullardan birini tanlab, suhbat natijasini umumlashtiradi: - O'zi yakun yasaydi -faolligi bilan ajralib turgan o'quvchidan suhbat natijalarini umumlashtirish va ma'lumot berish so'raladi.Yo'naltiruvchi savollar yordamida suhbat natijalarini umumlashtiradi	
V. Yakun yasash,tahlil qilish, baholash	Yakun yasaydi: O'quvchilar tomonidan amalga oshirilgan faoliyatni taxlil qiladi va baholaydi.	O'z-o'zini baholasht amalga oshirii mumkin.

MASHG'ULOTLARDA MUNOZARA USULIDAN FOYDALANISH

Munozara - muhokama. ma'lum muammo bo'yicha erkin fikr almashuvidir. Munozara usulidan foydalanishda kuzda tutilgan maqsadlar:

Yangi bilimlarni shakllantirish;

O'quvchilarni u yoki bu muammoni chuqur o'ylab ko'rishiga. tub ma'nosiga etishga imkon beradi., motivatsiyani ta'minlaydi;

- o'quvchilar dalil va dalilga asoslangan xulosa orasidagi farqni tushunib yetishlariga o'rganadi;

- kommunikativ ko'nikmalar shakllantiriladi, o'quvchilarda o'z fikrida mustahkam turish va uni himoya qilish hissi tarbiyalanadi.

- erkin munozarada, o'qituvchi, faqat uni boshlab beruvchi bo'lib, munozaraga aralashmaydigan hakamdir. Bu yerda, muhokama qilinayotgan jarayonning, muammoning o'ziga urg'u berish kerak va har bir o'quvchini o'z dalillaridan aniq foydalanishlariga rag'batlantirish lozim. Munozarada har bir o'quvchini ishga

solmoqchi bo'lsangiz, har xil yo'nalishlar bilan har bir shaxsga ta'sir etishni istasangiz, y holda erkin munozara tashkil etish lozim .

MUNOZARA USULINING TEXNOLOGIK XARITASI

Faoliyat bosqichlari	O'qituvchi faoliyati	Uquvchi faoliyati
I. Tayyorlov bosqichi	Munozara mavzuni aniqlaydi, uning maqsad, vazifalarini belgilaydi Munozara qatnashchilari erishishi kerak bo'lgan natijaga shakl beradi; Munozarani kerakli maromda ushlab turadigan savollar va oraliq xulosalarni tayyorlash, uni o'tkazish tartibini dasturlashtiradi; munozarani qanday va nimadan boshlanishi; o'quvchilarning barchasini munozarada ishtirokini qanday ta'minlanishi; munozarani qanday yakunlash va aniq tugallovchi xulosalarni tuzish lozim.	
II. Munozaraga kirish bosqichi	Mavzuni e'lon qiladi. Tuzilishini, o'z mulohazalarini ma'lum qiladi va o'quvchilarning o'z nuqtai nazarini bayonetishni taklif etadi. Munozaraning boshlanishida qiziqtirish uchun bir nechta tayyorlangan savollarni berish mumkin.	

III. Ishbilar monlik, bahslashuv bosqichi	Quyidagi vazifalarni amalga oshirishni belgilaydi: - belgilangan vaqtda ulgurish; - agar o'quvchilar o'zgacha fikrni bayon qilsalar bunday vaziyatda vositachi bo'lish; - munozaraga undash; - fikrlarni bo'laklash va munozaralarni taksimlash; - munosabatlarda doim madaniylikni ta'minlash;	O'z nuqtai nazarini bayon etadilar taklif kiritadilar. Muhokama qiladilar. O'z fikrlarini himoya qiladilar.
IV. Xulosa bosqichi	Keltirilgan dalillardan eng muhimlarini qisqacha sanab o'tadi va ajratadi. O'xshash fikrlarni ta'kidlaydi. Yechilmagan muammolarni aytib o'quvchining turli nuqtai nazarlarni yoritishga qo'shilgan hissa deb baholaydi.	

MUNOZARA SAMARADORLIGI

Birinchidan, o'quvchilarning tayyorgarligiga, o'z fikrini bildirsa olmasa, keltirayotgan daliliga raqiblarini ishonтира olmasa, munozara chalkash va qarama-qarshi tus oladi. Shuning uchun o'quvchilarda o'z fikrini shakllantirishga, savollarni puxta va ma'noli qilib aniq ifoda etishga muayyan isbotlar keltirishga erishish lozim.

Ikkinchidan, munozaraga faqat sinfda soglom ijtimoiy muhit bo'lgandagina, o'quvchilar bir - birlari bilan do'stona munosabatda bo'lsalargina o'tkazish mumkin.

Uchinchidan, munozara mavzui fikr almashish uchun mos bo'lib, o'quvchilar berilgan mavzu bo'yicha etarli bilimga ega bo'lgan taqdirdagina muvofaqiyatli chiqadi.

MASHG'ULOTLARDA AQLIY HUJUM USULIDAN FOYDALANISH

Bu usulni barcha fanlarda samarali qo'llash mumkin. O'qituvchi bir - biri bilan bog'liq bo'lgan mavzularning har biriga doir 15 tadan qisqa va aniq savollar tuzib chiqadi. Mavzular 8 - 10 ta bo'lishi mumkin. Sinf o'quvchilarini 8 —10 ta guruhga ajratib, har biriga savollar yozilgan kartotekalarni tarqatadi. 10 minut o'quvchilar savollarga tayyorlanish davomida musiqali tanaffus e'lon qilinadi. Mavzular va guruhlarini birin - ketin muayyan tartibda joylashuvi zaruriy shartdir. Masalan, geografiyadan I-guruh Respublika geografik o'rniga tayyorlansa, II-guruh o'lkaning o'rganilish tarixi, 1N-guruh - rel'ef, IV - guruh - geologik tuzilishi, V - foydali qazilmalari, VI - guruh ichki suvlari va daryolari, VII-guruh - iqlimi, VIII-guruh o'lka tuproqlari, IX-guruh o'simlik va hayvonot olami, X -guruh o'lka tabiatini muhofaza qilish va h.k. Maxsus tayyorgarlik ko'rilgandan so'ng o'qituvchi har bir guruxdan xohlagan o'quvchini chaqirib 15 ta savolga javob talab qiladi. Aqliy xujum qisqa muddatda o'tkazilib yakunlanadi. «Aqliy hujum» usulini qo'llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirgan g'oya va fikrlar muhokama etilmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirgan g'oya va fikrlar hatto bo'lmag'ur bo'lsayam, hisobga olinadi.
3. Qancha ko'p goya va fikrlar bildirilsa shuncha yaxshi.
4. Bildirilgan g'oya va fikrlarni to'ldirish va amalda kengaytirish mumkin.
5. G'oya va fikrlarni bildirish uchun vaqt aniq belgilanadi va qat'iy reglament belgilanadi.

Ta'limning bu usuli g'oyalarni topish, (o'quvchilar birlashgan holda) qiyin muammolarni yechishga harakat qiladilar, uni yechish uchun shaxsiy g'oyalarni ilgari suradilar. (generatsiya qiladilar)

Uning asosiy vazifasi muammoni mustaqil tushunish va yechishga o'quvchilarni o'rgatishdir.

AQLIY HUJUM USULINING TEXNOLOGIK XARITASI

Faoliyat bosqichlari	O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati
I. Tayyorlov bosqichi.	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni, natijalarni, baholash mezonini ishlab chiqadi .	
II. Munozaraga kirish bosqichi	Mavzuning maqsadini, natija va baholash mezonini e'lon qiladi. Miyaga hujum usuli maqsadni amalga oshirish vositasi ekanligini tushuntiradi.	
III. G'oyalarni kiritish bosqichi.	G'oyalarni magnitofon yoki videolentaga, qog'oz varagiga yoki doskaga yozib olishni tashkil qiladi.	Muammoni echish bo'yicha g'oya va takliflar haqida mulohaza yuritadilar.
IV. Tahlil bosqichi.	Ishlab chiqilgan baholash mezonlaridan kelib chiqib ilgari suralgan g'oyalarni tahlil qilishni tashkil etadi.	Bildirilgan g'oyalarni, takliflarni guruh bo'lib tahlil qiladilar. Eng qulay maqsadga muvofiqlarni aniqlaydilar.
V. Yakun yasash, tahlil va baholash bosqichi.	O'quvchilar tomonidan amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	O'z-o'ziga baho berishlari mumkin.

PINBARD USULI

PEN - mustahkamlash, BOORD - reja ma`nolarini anglatadi. Ta`limning bu usulining mohiyati shundan iboratki, unda munozara yoki o`quv suhbatlari amaliy usul bilan bog`lanib ketadi, Uning afzalligi shundaki u rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi maqsadlarni rube`ga chikaradi. O`kuvchilarda mulohaza yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi, o`z fikrini faqat og`zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko`nikmasi rivojlanadi.

PINBARD USULINING TEXNOLOGIK XARITASI

Faoliyat bosqichlari	O`qituvchi faoliyati	O`quvchi faoliyati
I. Tayyorlov bosqichi.	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni anik ifoda etadi. Natija va baholash mezonini aniklaydi. Qiziqtiruvchi savol va fikrlarni shakllantiradi.	
II. Mavzuni ishlash bosqichi.	Mavzuning tuzilishini aniqlaydi o`z mulohazalarini bildiradi va o`quvchilarga o`z nuqtai nazarini bayon etishni taklif etadi. «Pinbard» usuli mohiyatini tushuntiradi, munozara boshlanishini tezlashtirish uchun	Munozara vaqtida Mavzuni ishlab chiqadilar

	tayyorlangan savollarni beradi.	
III. O'z xulosalarini yozma bayon etish.	Kuzatadi.	Munozara davomida shakllangan fikrlarni. asosiy xulosalar ko'rinishida qog'oz varag'i yoki kartochkaga yozib doskaga ilib qo'yadilar
IV. Umumlashtirish bosqichi.	Maslahat va tavsiya orqai majbur qilmasdan ko'mak beradi.	Har bir guruhning 2-3 a'zosi o'rtoqlari bilan maslahatlashgan holda mazmunga qarab axborotlarni tartiblaydilar va guruhlarga ajratadilar. Strelka, chiziq va boshqa belgilar yordamida ularning o'zaro munosabatini bir butun yoki qarama-qarshi nuqtayi nazarlarni shakllantiradilar.
V. Yakun yasash, tahlil qilish va natijalarni baholash bosqichi.	O'quvchilar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga yakun yasayadi, tahlil qiladi va baholaydi.	O'z-o'ziga baho berishni amalga oshirishlari mumkin.

Uning afzalligi shundaki, u rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi maqsadlarni ro'yobga chiqaradi. O'quvchilarda mulohaza yuritish va munozara olib borish

madaniyati shakllanadi, o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi.

Noan'anaviy darslar va ta'limning interfaol usullari haqida yuqorida keltirilgan metodik tavsiyalarimizdan quyidagi xulosalarni yasash mumkin:

1. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka eshiruvi, bozor iqtisodiyotiga asta - sekin, bosqichma - bosqich o'tishimiz, jamiyatimizda ro'y berayotgan ijtimoiy - siyosiy o'zgarishlar va fan - texnikaning jadallik bilan rivojlanishi ta'lim mazmuniga, maktab hayotiga qolaversa, dars mohiyati va mazmunining takomillashuviga obyektiv omil vazifasini bajardi.

2. Respublikamizda ta'lim sohasida chuqur islohotlarning o'tkazilayotganligi, xorijdagi ta'lim tizimidagi ijobiy o'zgarishlar, jahon ta'lim standartlariga yaqinlashishga intilish, darslik va o'kuv dasturlari yangi avlodining yaratilishi darsni ixcham va qiziqarliroq shaklda tashkil etishimiz uchun zamin bo'ldi.

3. Noan'anaviy darslar va ta'limning interfaol usullarining markazida, o'quvchi shaxsining mustaqil tafakkurlay olishga o'rgatish masalasi turadi. Ko'p yillik qolipga o'mashgan, eski tipdagi darslar tizimi o'quvchilarning erkin fikrlashiga to'siq bo'lib, faqatgina o'qituvchining ma'lumot berishiga asoslangan edi.

4. Noan'anaviy darslar va ta'limning interfaol usullari o'quvchilarning darsga bo'lgan munosabati va ilm olishga bo'lgan havasini oshiruvchi muhim turtki bo'ldi, desak xato bo'lmaydi.

5. Noan'anaviy darslar va ta'limning interfaol usullarini ko'llashning muhim tarbiyaviy ahamiyati shundaki, o'quvchida yashirinib turgan qobiliyat va iste'dodlarni ro'yobga chiqaradi hamda ularda o'z imkoniyatlariga ishonch bilan yondashishni tarbiyalaydi.

6. Ta'limning interfaol usullarini maktab amaliyotida qo'llash, o'quvchiga har bir fandan o'rganiladigan ilmiy tushuncha va qonuniyatlarni shunchaki o'rganib

qolmasdan, balki uni keltirib chiqaruvchi sabablarni ham aniqlashtirishga yordam beradi.

7. O'quvchida ilmiy dunyoqarashni shakllanuvda, o'zligini tanishtirishda, murakkab vaziyatlarda o'zini erkin tutib mustaqil ravishda to'g'ri yo'l tanlay bilishida noan'anaviy darslar va ta'limning interfaol usullarining ahamiyati katta ekanligiga ishonch hosil qildik.

Ko'p pedagogik adabiyotlarda ta'lim samaradorligiga erishishning yuzlab usullari haqida ilmiy tavsiyalar keltirilgan. Ammo ularning kamchiligi shundaki, bu usullarni qo'llash asosan o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Biz bayon etayotgan noan'anaviy darslar va ta'limning interfaol usullarda markaziy o'rinda o'quvchi shaxsi qo'yilgan. Bunda o'qituvchi tashkilotchi va mazmunni to'ldiruvchi vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. YU.K.Babanskiy. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari. Toshkent. «O'zbekiston». 1990 yil.
2. O.Mo'minov. Zamonaviy geofafiya darsiga qo'yiladigan talablar. Toshkent. «O'zbekiston» -1990 yil.
3. L.T.Oxotina. Psixologicheskie osnovm uroka. Moskva. «Prosvevdenie»-1982 god.
4. V.F.Palamarchuk. SHkola uchit mislit'. Moskva. «Prosvevdenie» -1979 god.
5. L.V.Murav'ev. Kak uchit' shkol'nikov samostoyatel'no priobretat' znaniya. Moskva «Prosveshenie»-1980 god.
6. V.S.Il'in. Problemi vospitaniya potrebnosti v znanii y shkol'nikov Rostov na Donu - 1971 god.
7. V.F.Shatalov. Hamma va har bir kishini o'qitamiz. Toshkent «O'zbekiston». 1987 yil.

8. G.P. Pivovarova. Po stranitsam zanimatel'noy geografii. Moskva. «Prosvedenie» -1990 yil.
9. L.I.Bajenova. Pedagogik izlanish - Toshkent «O'qituvchi» -1990 yil.
10. VA.Kiseleva. T.A.Hafizova. Netraditsionnie uroki poiski, problemi. Buxara- 1998 god.
11. Viloyat o'qituvchilarning ilgor pedagogik tajribalari. 1990-2000.